“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Jamoaviy mehnat nizolarini hal etishda xalqaro qoidalarning oʻrni va ahamiyati

Lola Rahimqulova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
dotsenti, y.f.f.d. (PhD)
e-mail: rahimqulova@gmail.com

Аннотация. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalarini amalga moshirish hamda halqaro standart va ilgʻor xorijiy tajribani hisobga olgan holda milliy qonunchilikni takomillashtirish har doim Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarining ajralmas qismi boʻlib kelganligini ta'kidlash lozim.Milliy huquq va xalqaro huquq bir-biriga chambarchas bogʻliq holda oʻzaro ta'sir kuchiga ega boʻlishiga qaramasdan, huquqqa oid munosabatlarda iyerarxik boʻysunuvga ega emasligi bilan ahamiyatlidir. Milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalarining oʻzaro aloqasi ayniqsa mehnat sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Калит сўзлар. фуқаро, ҳуқуқ ва эркинликлар, халқаро пактлар

Аннотация. Следует отметить, что имплементация общепризнанных принципов и норм международного права в сфере защиты прав и свобод граждан, а также совершенствование национального законодательства с учетом международных стандартов и передового зарубежного опыта всегда были неотъемлемой частью правовых реформ, осуществляемых в Узбекистане.Несмотря на то, что национальное право и международное право тесно взаимосвязаны и обладают силой взаимодействия, они важны тем, что не имеют иерархической подчиненности в правовых отношениях. Взаимосвязь национального законодательства и норм международного права особенно важна в сфере труда.

Ключевые слова. гражданин, права и свободы, международные пакты

Annotation. It should be noted that the implementation of generally recognized principles and norms of international law in the field of protecting the rights and freedoms of citizens, as well as the improvement of national legislation, taking into account international standards and best foreign practices, has always been an integral part of the legal reforms being carried out in Uzbekistan.Despite the fact that national law and international law have the power of interaction in close connection with each other, they are significant in that they do not have hierarchical subordination in legal relations. The interaction of national legislation and norms of international law is

especially important in the sphere of labor.

Keywords. citizen, rights and freedoms, international pacts

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalarini amalga moshirish hamda halqaro standart va ilg'or horijiy tajribani hisobga olgan holda milliy qonunchilikni takomillashtirish har doim O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarining ajralmas qismi bo'lib kelganligini ta'kidlash lozim.

Milliy huquq va xalqaro huquq bir-biriga chambarchas bog'liq holda o'zaro ta'sir kuchiga ega bo'lishiga qaramasdan, huquqqa oid munosabatlarda iyerarxik bo'ysunuvga ega emasligi bilan ahamiyatlidir. Milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalarining o'zaro aloqasi ayniqsa mehnat sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro huquq milliy mehnat qonunchiligi normalarining eng muvaffaqiyatli namunalari ta'siri ostida shakllantirilgan. Shu bois ham dunyoda aksariyat davlatlarning mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari mazmunida xalqaro huquq normalari ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Mamlakat Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga tayanishini e'tirof etilishi bu milliy huquq tizimining asosini xalqaro standartlar va shartnomalar tashkil etishidan darak beradi. O'zbekiston bugungi kungacha inson huquqlari bo'yicha 70 dan ortiq xalqaro hujjatning, shu jumladan, BMTning inson huquqlari sohasidagi 9 ta asosiy konvensiyasining 6 tasi hamda 4 ta fakultativ protokolning ishtirokchisi hisoblanadi. Xususan, mehnat sohasidagi BMT standartlari orasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi alohida o'rin tutadi. Mazkur deklaratsiyaning 23-moddasida har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo'lish va ishsizlikdan himoya qilinish, hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish hamda kasaba uyushmalari tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqlari kafolatlangan.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda qo'shilgan) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidagi mehnat sohasidagi kafolatlarni yana ham to'ldirib, barcha mehnatkashlarga kasaba uyushmalarining milliy federatsiya yoki konfederatsiya tuzish huquqi va milliy federatsiya, konfederatsiyalarning xalqaro kasaba uyushmalari tuzish yoki shu kabi uyushmalarga birlashish hamda har bir mamlakatning qonunlariga muvofiq amalga oshiriladigan ish tashlash huquqi bilan ta'minlanganligi aks etgan bo'lsa, xuddi shu huquq Fuqaroviy va Siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda ham aks etganining guvohi bo'lishimiz mumkin (har bir inson boshqalar bilan uyushish erkinligi huquqiga, shu jumladan kasaba uyushmalar tashkil etish erkinligi va o'z manfaatlarini

himoya qilish uchun shunday uyushmalarga kirish huquqiga ega).

E'tiborli jihati shundaki, yuqoridagi ikki pakt mehnat huquqining xalqaro manbalari tizimida XMT standartlaridan yuqori sanalsada, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi pakt (8-modda) shuningdek, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakt (22-modda)larda mehnatkashlarning birlashish va uyushish erkinligi masalasi mazkur konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlarga uyushmalar ozodligi va huquqini himoya qilish borasida, ushbu konvensiyada nazarda tutilgan kafolatlarga zarar yetkazib qonuniy aktlar qabul qilish yoki ushbu kafolatlarga ziyon yetkazilgan holda qonun qabul qilish huquqini bermasligini belgilaydi. Ya'ni bunda yuqori turuvchi BMT standarti o‘z normalarida quyi turuvchi XMT konvensiyasi normalari ustunligini e'tirof etadi. Vaholanki, manbalar tizimida quyi turuvchi manba yuqori turuvchi manbaga asoslanishi lozim, aksincha emas.

Xalqaro mehnat tashkiloti BMT ning mehnat va ijtimoiy ta'minot masalalariga oid ixtisoslashgan alohida bo‘g‘ini hisoblanadi hamda mehnat, ijtimoiy ta'minot masalalari bo‘yicha muhim me'yoriy huquqiy hujjatlar – konvensiya va tavsiyalarni ishlab chiqadi. Ma'lumot uchun aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro mehnat tashkilotiga 1992-yilda a'zo bo‘lib kirgan va hozirda 20 dan oshiq konvensiyasini, xususan 8 ta fundamental konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan.

Xalqaro mehnat tashkilotining to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoaviy mehnat nizolarini ko‘rib chiqish va hal etishni huquqiy tartibga solishga yo‘naltirilgan konvensiya yoki tavsiyasi yo‘q. Biroq, XMT (Governing body) doirasida har yilgi konferensiyalarda mehnat nizolari va ularni hal etish bilan bog‘liq ko‘plab masalalar mavjud bo‘ladi. Xususan, XMT 262 va 267-sessiyalarida XMT a'zo davlatlari mehnat qonunchiligida mehnat nizolarini ko‘rib chiqish va hal etish turli xil yondashuv va tizimda ekanligini, ular o‘rtasida katta farqlanish borligini inobatga olib, mehnat nizolarini hal etishni huquqiy tartibga soladigan alohida konvensiya yoki tavsiya ishlab chiqishni taklif etadi va buning natijasi a'zo davlatlar qonunchiligida nafaqat umumiy terminlarni qo‘llashda balki, mehnat nizolarini hal etishda yagona yondashuvga ega bo‘lgan eng samarali metodlardan foydalanishni ham osonlashtirishga imkoniyat yaratadi.

XMT norma ijodkorligi faoliyati davomida imkon qadar ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirish va mehnat konfliktlarini tinch yo‘l hal etishni kengaytirishga jiddiy e'tibor berganligini kuzatish mumkin.

Shunisi e'tiborliki, so‘nggi yillarda XMT o‘z bayonotlarida mehnat nizolarini hal etish bilan bog‘liq yangi tendensiyalar paydo bo‘lganligini ta'kidlamoqda. Yangi tendensiyalar iqtisodiyotning globallashavi hamda ko‘plab davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi kabi omillar bilan bog‘liqdir. Ushbu tendensiyalar sabab mehnat nizolari turlari va unga olib keluvchi sabablar, hal etish tartib-taomillari ham yildan yilga murakkablashmoqda. 2013-yil

102-konferensiyada ham XMT boshqaruv organi mehnat nizolarini hal etishga qaratilgan tavsiyalar va konvensiyalarni qayta koʻrib chiqish, ularni zaruriy yangi ma'lumotlar va tartib-taomillar bilan boyitish zamon talabi ekanligiga alohida e'tibor qaratdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, XMTning jamoaviy mehnat nizolarini hal etishga dahldor boʻlgan boʻlgan konvensiya va tavsiyalarni mazmunan toʻgʻri tahlil etish va buning natijasida qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar tayyorlash mehnat huquqi fani oldida turgan masalalardan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston tomonidan Xalqaro mehnat tashkilotining jamoaviy mehnat nizolarini hal etishga qaratilgan Tavsiyalarini qabul qilish mehnat munosabatlari rivojiga oʻz hissasini qoʻshadi.